



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 28-dekabr

VII-3-026-5-0-K/24

Navoiy viloyati

Viloyatda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishini nazorat qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Viloyatda kambag‘allikni qisqartirish, ehtiyojmand aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatilishini kengaytirish, aholi daromadlarini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, hududlarda kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish, xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda viloyatni ishsizlikdan holi hududga aylantirish bo‘yicha viloyatda samarali ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Bu boradagi ishlar viloyat Kengashi deputatlari o‘zlarini saylangan okruglarida deputatlik nazoratini amalga oshirib kelmoqda.

Respublika bo‘yicha kambag‘allikni qisqartirish masalasini umummilliy harakatga aylantirgan holda, “Kambag‘al oilalar uchun yetta imkoniyat va mas‘uliyat” tamoyili asosida joriy yilning 1-noyabridan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” kompleks dasturini amalga oshirish boshlandi.

Ushbu yo‘nalishda belgilangan chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan hududlarda samarali nazoratni yo‘lga qo‘yish maqsadida, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 29-noyabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalarning bajarilishini nazorat qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi KQ-6-V-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan deputatlik nazorati samaradorligini oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ishlar hamda maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosi yuzasidan nazorat tadbirlarini amalga oshirish uchun xalq deputatlari viloyat Kengashi huzurida Kambag‘allikni qisqartirish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha komissiya tuzilsin.

4. Quyidagilar:

xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Kambag‘allikni qisqartirish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha komissiya to‘g‘risida nizom 2-ilovaga muvofiq;

xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Kambag‘allikniqisqartirish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha komissiyaning tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga:

kambag‘allikniqisqartirish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha komissiya tashkil etish yuzasidan tegishli qaror qabul qilish hamda uning faoliyatini namunaviy nizom asosida yo‘lga qo‘yish;

har oyda ushbu komissiya majlislarida kambag‘allik darajasini qisqartirish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosini ta’minlash borasida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirilgan ishlarning muhokama qilib borilishini shuningdek, mutasaddi idora va tashkilotlar rahbarlarining mazkur yo‘nalishdagi faoliyati to‘g‘risidagi axborotlari eshitilishini ta’minlash;

hududlarda kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini keng tushuntirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish;

kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi ishlar samaradorligi ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish hamda ushbu tadbirlarning ommaviy axborot vositalarida yoritilishiga alohida e’tibor qaratish tavsiya etilsin.

6. Tuman va shaharlar hokimliklariga:

uch kun muddatda 2024-2025 yillarda oilalarni kambag‘allikdan chiqarishning yo‘nalishlar vahududlar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlarini;

har oy yakuni bilan keyingi oyning 10-sanasiga qadar kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar va maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosi haqidagi tahliliy ma’lumotni xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga taqdim etsin.

7. Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Raubayeva), viloyat teleradiokompaniyasi (G‘.Sultonov), “Do‘slik bayrog‘i” va “Знамя дружбы” gazetalari tahririysi davlat korxonasi (B.Umarov) bilan birgalikda hududlarda kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashborasida amalga oshirilayotgan tadbirlarining ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini ta’molasin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Sulaymonov) va xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Isoqov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ALIYEV G‘OFIR
QUVATOVICH

Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining
 2024-yil 28-dekabrdagi
 VII-3-026-5-0-K/24 -son qaroriga
 1-ilova

**Viloyatda kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan
 deputatlik nazorati samaradorligini oshirish bo‘yicha**
“YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati	Axborot beruvchilar	Mas’ul ijrochilar
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida o‘tkazilgan videoselektor majlislarida belgilangan kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirishga doir ustuvor vazifalar hamda hududlar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishi ustidan ta’sirchan deputatlik nazoratini o‘rnatib, natijalarini mahalliy Kengashlari sessiyalarida muhokama qilish.	Har chorak yakuni bilan keyingi oyning 15-sanasiga qadar	Asosiy axborot beruvchilar – dastur ijrosiga mas’ul hududiy ijro organlari rahbarlari Qo‘srimcha axborot beruvchilar – eng og‘ir ahvoldagi 330 ta mahallaga biriktirilgan hududiy davlat organlari rahbarlari	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zolari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari
2	Karmana tumanida aholi turmush sharoitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy-iqtisodiy qo’llab-quvvatlash dasturlarining ijrosi samaradorligini o‘rganish va natijalarini Kengashning sayyor majlisida muhokama qilish.	2025-yil yanvar	Axborot beruvchilar – Karmana tuman hokimligi, hududiy ijro organlari rahbarlari Qo‘srimcha axborot beruvchilar – dasturlar ijrosiga mas’ul ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari	Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari muvaqqat komissiyalari
3	Hududlarda o‘tkaziladigan deputatlik nazorati tadbirlari doirasida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi ijrosi, xususan, 2025 yilda aholini kambag‘allikdan chiqarishning yo‘nalishlar va hududlar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilishini o‘rganish hamda Kengashlar majlislarida muhokama qilish.	Ish rejaga muvofiq	Axborot beruvchilar – tuman va shahar hokimliklarining birinchi o‘rinbosarlari Qo‘srimcha axborot beruvchilar – dasturlar ijrosiga mas’ul hududiy davlat organlari rahbarlari	Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari muvaqqat komissiyalari

4	<p>Hududlarda barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish, tadbirkorlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni o‘rnatish, “drayver” loyihalarni amalga oshirish, yer maydonlarini kambag‘al oilalarga ijara ga berish, tadbirkorlikka jalb qilish borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan mas’ul idoralar rahbarlarining hisobotini mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari majlisida eshitish.</p>	<p>2025-yil yanvar 2025-yil avgust</p>	<p>Asosiy axborot beruvchilar – Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limlari Qo‘srimcha axborot beruvchilar – Iqtisodiyot va moliya, Qishloq xo‘jaligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Soliq inspeksiyasi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, tijorat banklari, tuman va shahar hokimliklari</p>	<p>Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarning Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari hamda Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalari</p>
5	<p>Tasdiqlangan dasturlar doirasida fuqarolarning sifatli ta’lim olish, davlat va xorijiy tillarni hamda kasb-hunar o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish, maktabgacha ta’lim bilan qamrovni oshirish, xotin-qizlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va kambag‘al oilalar farzandlarining olyi ma’lumot olishiga ko‘maklashish borasida amalga oshirilgan ishlar holatini o‘rganish va mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari qo‘shma majlislarida muhokama qilish.</p>	<p>2025-yil fevral 2025-yil sentabr</p>	<p>Asosiy axborot beruvchilar – Maktabgacha va maktab ta’limi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari Qo‘srimcha axborot beruvchilar – Sport, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Iqtisodiyot va moliya, Adliya, tuman va shahar hokimliklari</p>	<p>Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarning Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari hamda Yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalari</p>
6	<p>Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘ining “Hududlarda kambag‘al oilalar a’zolarining kafolatlangan davlat tibbiy xizmatidan foydalanishi, tibbiy ko‘rikdan o‘tishi hamda o‘z sog‘lig‘i uchun ijtimoiy mas’uliyatini oshirishiga ko‘maklashish yuzasidan, ko‘rilayotgan manzilli chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi axborotini mahalliy Kengashlarning qo‘shma majlisida eshitish.</p>	<p>2025-yil mart 2025-yil oktabr</p>	<p>Asosiy axborot beruvchilar – Sog‘liqni saqlash boshqarmasi Qo‘srimcha axborot beruvchilar – Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik, Sport, Iqtisodiyot va moliya, tuman va shahar hokimliklari</p>	<p>Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarning Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari hamda Yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalari</p>
7	<p>Kambag‘al oilalarning ijtimoiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini ro‘yobga chiqarish hamda aholining yashash sharoitlarini yaxshilash choralarini amalga oshirishga qaratilgan ishlar holatini o‘rganish va mahalliy Kengashlarning qo‘shma majlislarida muhokama qilish.</p>	<p>2025-yil aprel 2025-yil noyabr</p>	<p>Asosiy axborot beruvchilar – Ijtimoiy himoya milliy agentligi Qo‘srimcha axborot beruvchilar – Sog‘liqni saqlash, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik, tuman va shahar hokimliklari</p>	<p>Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarning Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari hamda Fan, ta’lim va sog‘liqni</p>

				saqlash masalalari bo'yicha komissiyalar
8	Hududlarni jadal kompleks rivojlantirish, xususan, mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish, elektr energiyasi bilan uzlucksiz ta'minlash, tuman markazi bilan transport jihatidan bog'langanligini yaxshilash, ichki yo'llarni ta'mirlash va tomorqalarni sug'orish suvi bilan ta'minlash imkoniyatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar holatini o'rganish va mahalliy Kengashlarning qo'shma majlislarida muhokama qilish.	2025-yil may 2025-yil dekabr	Asosiy axborot beruvchilar – Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi Qo'shimcha axborot beruvchilar – Iqtisodiyot va moliya, Transport, "Quyi-Zarafshon", Avtomobil yo'llari, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "O'zsuvtaminot" AJ, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, tuman va shahar hokimliklari	Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarning Korruptsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik hamda Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha komissiyalar
9	Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, mahallalarda aholini muntazam internet bilan ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar holatini o'rganish va mahalliy Kengashlarning qo'shma majlislarida muhokama qilish.	2025-yil iyun 2026-yil fevral	Asosiy axborot beruvchilar – Raqamli texnologiyalar boshqarmasi Qo'shimcha axborot beruvchilar – Maktabgacha va maktab ta'limi, Iqtisodiyot va moliya, Yoshlar ishlar agentligi, tuman va shahar hokimliklari	Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarning Korruptsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik hamda Yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyalar

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2024-yil 28-dekabrdagi
VII-3-026-5-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Kambag‘allikni qisqartirish
bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha muvaqqat komissiya to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Kambag‘allikni qisqartirish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha komissiya (keyingi o‘rinlarda – Komissiya)ning asosiy maqsadi, vazifalari, huquqlari hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Komissiya mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining hududiy bo‘linmalari hamda boshqa idora va tashkilotlar (keyingi o‘rinlarda – mahalliy ijro organlari) tomonidan kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish sohasida belgilangan vazifalar va maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishi yuzasidan deputatlik nazoratining samaradorligi va natijadorligini oshirish maqsadida, xalq deputatlari viloyat Kengashi (keyingi o‘rinlarda - Kengash) huzurida tashkil etiladi.

3. Komissiya kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirishga oid mahalliy ijro organlariga yuklatilgan vazifalar bajarilishi ustidan deputatlik nazoratini olib borishda Kengashga ko‘maklashuvchi organ hisoblanadi.

4. Komissiya Kengash deputatlari, davlat organlari, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda 2025-yil 31-dekabrgacha bo‘lgan muddatga tuziladi.

5. Komissiyani tashkil etish, tugatish va tarkibini tasdiqlash Kengash qarori bilan amalga oshiriladi.

6. Komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, tegishli Kengash qarorlariga, ushbu Nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

2-bob. Komissyaning asosiy maqsadi va vakolatlari

7. Komissyaning asosiy maqsadi kambag‘allikni qisqartirish, ehtiyojmand aholiga ijtimoiy yordam va xizmatlar ko‘rsatish, aholi bandligini ta’minlash yuzasidan deputatlik nazoratini amalga oshirishda Kengashga ko‘maklashishdan iborat.

8. Komissyaning vazifaci kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish bo‘yicha belgilangan quyidagi ustuvor vazifalarning mahalliy ijro organlari tomonidan bajarilishini o‘rganish, tahlil etish, muhokama qilish, Kengash sessiyasi muhokamasiga olib chiqish bo‘yicha takliflar kiritishdan iborat:

aholini kambag‘allikdan chiqarish yo‘nalishlari (barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish, ta’lim olish va kasb-hunar o‘rganish, kafolatlangan

davlat tibbiy xizmatidan foydalanish, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, yashash sharoitlarini yaxshilash, davlat tomonidan mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish, davlat organlari xodimlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qilish) bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosini ta’minlash;

hududning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish sohalarida tadbirkorlikning rivojlanishiga turtki beruvchi “drayver” loyihalarga zarur infratuzilmani yaratish;

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, “Biznesga birinchi qadam” dasturlari hamda mikromoliya tashkilotlari orqali kreditlar ajratish;

“yashil mahalla” loyihalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi dasturlarni amalga oshirish;

og‘ir ahvoldagi oilalarni kambag‘allikdan chiqarish maqsadida hududdagi tashkilotlar rahbarlari va ularning o‘rinbosarlariga eng og‘ir ahvoldagi kambag‘al oilalarni biriktirish orqali ushbu oilalarni kambag‘allikdan chiqarish.

Komissiya qonunchilik hujjalariغا muvofiq kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

9. Komissiya o‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

hududda kambag‘allikni qisqartirish, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, infratuzilmani yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan hududiy ijro organlaridan komissiyaning vakolatlari doirasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha ma’lumotlarni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

mahalliy ijro organlari tomonidan kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish sohasida olib borilayotgan ishlar holati va natijadorligini bevosita joylarga chiqib o‘rganish;

bevosita joylarga chiqqan holda amalga oshiriladigan o‘rganish, nazorat-tahlil tadbirlariga mutasaddi idora va tashkilotlar malakali mutaxassislarini belgilangan tartibda jalb etish;

“Kambag‘al oilalar uchun yetta imkoniyat va mas’uliyat” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tegishli idora va tashkilotlar rahbarlarining axborotlarini eshitish hamda muhokama qilish;

aholini kambag‘allikdan chiqarishning yo‘nalishlar va hududlar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosiga doir masalalarni Kengashning tegishli doimiy komissiyasi majlislari, Kengash sessiyalari muhokamasiga kiritish bo‘yicha takliflar berish;

joriy amaliyotdan kelib chiqqan holda kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish hamda Kengashga kiritish.

Komissiya qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

10. Komissiya o‘z vakolatlarini davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxona, tashkilot va muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

3-bob. Komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi

11. Kengashning Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi raisi bir vaqtning o'zida Kambag'allikni qisqartirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha komissiyaning ham raisi hisoblanadi, uning vakolatiga quyidagilar kiradi:

Komissiya faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, Komissiyaga yuklatilgan vazifalar bajarilishi yuzasidan Komissiya a'zolarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

Komissiya majlisini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilish, ularda raislik qilish va ushbu majlis kun tartibini belgilash;

Komissiya faoliyatiga davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxona, tashkilot va muassasalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, ilmiy muassasalarning mutaxassislarini o'rnatilgan tartibda jalb etish, uning majlislarida ishtirok etishga taklif qilish;

Komissiya qarorlari va boshqa hujjatlarini imzolash;

Komissiya qarorlari bajarilishini nazorat qilish;

Komissiyaning samarali faoliyatini ta'minlashga oid boshqa vazifalarni bajarish.

12. Komissiya a'zolari o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradilar. Ular:

Komissiya majlislarida ko'rib chiqiladigan kun tartibidagi masalalar bo'yicha muhokamada ishtirok etadilar va qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydilar;

kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq bo'lган dolzarb masalalar yuzasidan Komissiyaga takliflar kiritadilar;

Komissiya tomonidan ko'rib chiqiladigan masalalar yuzasidan xulosalar tayyorlaydilar;

Komissiyaning majlis bayonlari, qarorlari va qo'yilgan vazifalar ijrosi to'g'risidagi axborotlarni Komissiya raisiga taqdim etadilar;

Komissiyaning samarali ish olib borishini ta'minlashga oid boshqa funksiyalarni bajaradilar.

13. Kengash kotibi bosh mutaxassislaridan biri Komissiyaning mas'ul kotibi hisoblanadi.

14. Komissiyaning mas'ul kotibi:

Komissiya faoliyatining tashkiliy-texnik ta'minotini amalga oshiradi;

ish rejasining loyihasini tayyorlaydi, uni Komissiya muhokamasiga kiritadi;

Komissiya majlisida ko'rib chiqish uchun materiallar tayyorlanishini ta'minlaydi, uning ishi o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun zarur bo'lган axborot va materiallarni aloqador mahalliy ijro organlaridan so'raydi va oladi;

Komissiya majlisining kun tartibidagi masalalar bo'yicha tahliliy materiallarni tayyorlaydi;

Komissiyaning vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan uning qarorlari loyihalarini tayyorlaydi;

Komissiya qarorlari, faoliyati sohasiga oid tasdiqlangan chora-tadbirlar rejaliari ijrosi monitoringini olib boradi;

Komissiya a'zolarining takliflari, shuningdek, mulohazalarini tizimlashtiradi;

Komissiya raisi bilan majlis o'tkazish muddati va joyini, shuningdek, taklif etilganlar ro'yxatini kelishadi, Komissiya a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni majlis sanasi, vaqtি va o'tkaziladigan joyi haqida xabardor qiladi;

Komissiya majlisi bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomalar nusxalarini Komissiya a'zolari, aloqador mahalliy ijro organlariga yuborilishini ta'minlaydi;

Komissiya qarorlari ijrosi monitoringini olib boradi va natijalari yuzasidan axborotni Komissiya majlisida ko‘rib chiqish uchun Komissiya raisiga kiritadi;

Komissiyaning qarorlariga hamda Komissiya raisining qonuniy topshiriqlariga muvofiq boshqa vazifalarni bajaradi.

15. Komissiya o‘z faoliyatini majlislar shaklida amalga oshiradi.

Komissiya majlislari Komissiyaning ish rejasiga muvofiq, biroq bir oyda kamida bir marta, shuningdek, Komissiya vakolatiga tegishli bo‘lgan shoshilinch masalalarni ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelganda chaqiriladi.

Komissiya majlisi Komissiya a'zolari umumiy sonining yarmidan ko'pi tashabbusiga ko'ra ham chaqirilishi mumkin.

Komissiya a'zosi Komissiya majlislarida ishtirok etishi shart.

Komissiyaning majlisi, agar unda komissiya a'zolari umumiy sonining kamida yarmi hozir bo'lsa vakolatli hisoblanadi.

Komissiya majlisini Komissiya raisi, u bo‘lmagan yoki o‘z vazifalarini bajara olmagan taqdirda Komissiya a’zolaridan biri olib boradi.

Komissiya majlisi ochiq tarzda o'tkaziladi.

Komissiya majlisida qarorlar unda ishtirok etayotgan a'zolarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Qarorlar majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi va majlisga raislik giluvchi tomonidan imzolanadi.

16. Komissiya majlislariga ko'rib chiqilayotgan masalalardan kelib chiqqan holda Komissiya tarkibiga kiritilmagan davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, mahalliy ijro hokimiyat organlari, huquqni muhofaza qiluvechi organlarning rahbarlari va mutaxassislari taklif etilishi mumkin.

17. Komissiya majlisi bayonnomasi bir hafta muddatda Komissiya a'zolari, mahalliy ijro organlari va boshqa manfaatdor idora va tashkilotlarga yuboriladi.

18. Komissiya qarorlari bajarilishini monitoring qilish Komissiyaning mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

19. Har bir majlis yakunlari bo'yicha Komissiya amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Kengashga axborot taqdim etadi.

20. Komissiya qarorlari hududda joylashgan davlat organlari tomonidan ko‘rib chiqilishi shart, natijalari yoki ko‘rilgan choralar to‘g‘risida, agar qarorda boshqacha qoida belgilangan bo‘lmasa, uzog‘i bilan bir oydan kechiktirmay xabar qilinishi lozim.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

21. Komissiya Kengash oldida mas'ul va unga hisobdor.

22. Ushbu Nizomga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish Kengash qarori asosida amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari Navoiy viloyati
Kengashining
2024-yil 28-dekabrdagi
VII-3-026-5-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Kambag‘allikni qisqartirish
bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha muvaqqat komissiyaning**

TARKIBI

№	F.I.O.	Ish joyi va lavozimi
1.	Isoqov Normurod Isroilovich	Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi, <i>Komissiya raisi</i>
2.	Tumishova Aksavli Moldagaliyevna	Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashi deputati, Oliy Majlis Senati a’zosi
3.	Sulaymonov Rustam Davutovich	Viloyat hokimining moliya - iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rbosari
4.	Tog‘ayeva Nazira Mamanazarovna	Xalq deputatlari viloyat Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi
5.	Rizayeva Ra’no Barnoyevna	Xalq deputatlari viloyat Kengashining Yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi
6.	Hamrayev Jamoliddin Jumaqulovichi	Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati mudiri
7.	Jalilov Alijon Saydullayevich	“Yuksalish” umummilliy harakati viloyat bo‘limi boshlig‘i
8.	<i>Kelishuv asosida</i>	Viloyat prokurorining o‘rbosari
9.	Quvandikov Fayzulla Bozorovich	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Navoiy viloyati Xalq qabulxonasi mudiri
10.	Rajabov Kaxramon Razzakovich	Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat boshqarmasi boshlig‘i
11.	Djauberdiyev Yusuf Farxotovich	O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i o‘rbosari
12.	Nabihev Shabon Shodihevich	“Nuroniy” jamg‘armasi Navoiy viloyati bo‘limi raisi
13.	Negmuratov Sardor Ro‘ziqulovich	Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati bosh mutaxassis, <i>Komissiya mas’ul kotibi</i>

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o’tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.